


XII. BANDLIK VA MEHNAT BOZORI

2026- yil yanvar-mart oylarida kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga ishga joylashtirishda yordam berishni so'rab 4 960 nafar fuqaro murojaat qildi. Ish qidirib murojaat etganlarning katta qismi Qarshi (673 kishi), Qarshi shahrida (568 kishi), G'uzor (455 kishi), Qamashi (434 kishi), Shahrisabz (406 kishi), Yakkabog' (377 kishi), Shahrisabz shahrida (296 kishi), Kasbi (249 kishi), Kitob (243 kishi), Nishon (217 kishi), Ko'kdala (212 kishi), Chiroqchi (208 kishi) tumanlariga to'g'ri keladi.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga murojaat qilgan fuqarolardan 3 146 nafari ishga joylashtirildi. Ayniqsa ushbu ko'rsatkich, Qarshi shahrida (331 kishi), Qamashi (315 kishi), G'uzor (296 kishi), Qarshi (296 kishi), Yakkabog' tumanida (260 kishi), Shahrisabz (247 kishi), Chiroqchi (168 kishi) tumanlarida yuqori darajada bo'ldi. O'tgan davr mobaynida bandlikka ko'maklashuvchi markazlarida ro'yxatga olingan fuqarolardan 8 nafari ishsizlik maqomini olgan.

Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni quyidagicha ifodalanadi:

Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni (kishi)




**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlariga
ish qidirib murojaat etgan va ro‘yxatga olinganlar soni**
(2026- yil 1- aprel holatiga, kishi)

	<i>Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlariga ish qidirib murojaat etganlar soni</i>		<i>jumladan, rasman ishsiz maqomini olganlar</i>		<i>ulardan, ishsizlik nafaqasi ajratilganlar soni</i>	
	<i>2025- yil yanvar-mart</i>	<i>2026- yil yanvar-mart</i>	<i>2025- yil yanvar-mart</i>	<i>2026- yil yanvar-mart</i>	<i>2025- yil yanvar-mart</i>	<i>2026- yil yanvar-mart</i>
Viloyat bo‘yicha:	16 715	4 960	20	8	20	8
shaharlar:						
Qarshi	1 282	568	-	2	-	2
Shahrisabz	753	296	1	-	1	-
tumanlar:						
G‘uzor	1 151	455	6	-	6	-
Dehqonobod	1 393	171	-	-	-	-
Qamashi	1 441	434	-	-	-	-
Qarshi	1 826	673	3	1	3	1
Koson	1 232	172	-	1	-	1
Kitob	944	243	1	-	1	-
Mirishkor	700	161	-	-	-	-
Muborak	709	118	3	1	3	1
Nishon	812	217	3	1	3	1
Kasbi	964	249	-	1	-	1
Ko‘kdala	743	212	1	-	1	-
Chiroqchi	900	208	-	-	-	-
Shahrisabz	1 012	406	1	-	1	-
Yakkabog‘	853	377	1	1	1	1



Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga ish qidirib murojaat etgan fuqarolarning hududlar kesimidagi ulushi

(jami murojaat qilganlarga nisbatan ulushi, foizda)



Izoh: 2026- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga murojaat qilib kelganlardan ro'yxatga olinganlar ulushi Qarshi, Qamashi, Dehqonobod, Qarshi shahri, Koson, G'uzor, Kitob, Chiroqchi va Kasbi tumanlarida yuqori bo'lgan.


Ish bilan ta'minlangan aholi soni¹⁾

	<i>2025- yil yanvar-mart</i>	<i>2026- yil yanvar-mart</i>
Viloyat bo'yicha:	8 351	3 146
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	788	331
Shahrisabz	419	160
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	710	296
Dehqonobod	425	137
Qamashi	504	315
Qarshi	551	296
Koson	741	103
Kitob	621	167
Mirishkor	427	137
Muborak	375	88
Nishon	394	133
Kasbi	424	145
Ko'kdala	422	163
Chiroqchi	551	168
Shahrisabz	513	247
Yakkabog'	486	260

¹⁾ *Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlari asosida*



Ish bilan ta'minlangan aholining hududlar kesimidagi ulushi
(jami ish bilan ta'minlanganga nisbatan ulushi, foizda)



Izoh: Ishga joylashtirilgan shaxslar soni Koson, Qarshi shahrida, Kitob, G'uzor, Chiroqchi, Shahrisabz, Qarshi tumanlarida yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin.

O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi. 2026- yilning yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 665,2 ming so‘mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslarning daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.

2026- yilning yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyatida o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori miqdori Qarshi shahrida 6 614,7 ming so‘m (141,8 %), Nishon tumanida 6 340,0 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 135,9 %), Muborak tumanida 4 959,1 ming so‘m (106,3 %) ni tashkil etgan.


Yuridik shaxslarda xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad

(2026- yilning yanvar-mart oylarida qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	Xodimlar soni, kishi	Mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad mlrd.so‘m	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m
Viloyat bo‘yicha jami	250 064	3 499,8	4 665,2
shu jumladan:			
Sanoat	26 167	592,2	7 344,3
Qurilish	6 304	89,1	4 689,4
Savdo	1 972	25,3	4 255,4
Tashish va saqlash	6 221	159,2	8 518,8
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	348	3,2	3 057,9
Axborot va aloqa	1 234	41,4	11 126,8
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	1 870	75,2	13 125,1
Ta‘lim	119 894	1 395,1	3 805,2
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish	55 342	521,4	3 112,8
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	2 454	38,2	5 088,3
Boshqa faoliyat turlari	28 258	559,5	6 593,4

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2026- yilning yanvar-mart oylarida qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)



Viloyat bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 665,2 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,2 % ga o'sgan .

O'rtacha ish haqining yuqori miqdorlari iqtisodiy faoliyat turlaridan Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilikda 13 125,1 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,8 barobarga yuqori), Axborot va aloqada 11 126,8 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,3 barobarga yuqori), Tashish va saqlash sohasida 8 518,8 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 182,6 % ni tashkil qildi), Sanoat sohasida 7 344,3 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 157,4 % ni tashkil qildi), hamda Boshqa faoliyat turlari sohasida 6 593,4 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 141,3 % ni tashkil qildi) ekanligi kuzatildi.




Qashqadaryo iloyati bo'yicha
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(yanvar-mart oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
subyektlaridan tashqari, ming so'm)

	<i>2025- yil</i>	<i>2026- yil</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Qashqadaryo viloyati	4 083,0	4 665,2	114,2
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	5 690,5	6 614,7	116,2
Shahrisabz sh.	3 890,9	4 579,6	117,7
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	4 320,0	4 572,3	105,8
Dehqonobod	4 028,1	4 372,1	108,5
Qamashi	2 994,5	3 253,0	108,6
Qarshi	3 429,2	3 673,6	107,1
Koson	3 159,0	3 524,1	111,5
Kitob	3 279,6	4 101,7	125,0
Mirishkor	3 032,2	3 351,1	110,5
Muborak	4 570,8	4 959,1	108,5
Nishon	5 273,8	6 340,0	120,2
Kasbi	2 798,7	3 704,5	132,3
Ko'kdala	3 188,5	3 483,4	109,2
Chiroqchi	3 364,3	3 648,9	108,4
Shahrisabz	3 119,3	3 522,2	112,9
Yakkabog'	2 858,9	3 547,5	124,1


Ish haqi. 2026- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.

Ta'lim sohasida 1 928 ta muassasada 119 894 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 47,9 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 1 395,1 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 3,9 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 805,2 ming so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 13,8 % ga o'sgan.

Ta'lim iqtisodiy faoliyati bo'yicha
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2026- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Hududlar




■ ming so'm



Sanoat iqtisodiy faoliyat turida 48 ta korxonada 26 167 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 10,4 %) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 592,2 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulishi 16,9 %) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 7 344,3 ming so‘mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 12,6 % ga o‘sgan.

Sanoat iqtisodiy faoliyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2026- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so‘m)




Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya‘ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nishon tumanida 20 191,9 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,7 barobarga yuqori), Dehqonobod tumanida 8 939,3 ming so‘mni (121,7 % ni tashkil qildi), G‘uzor tumanida 8 156,0 ming so‘mni (111,0 % ni tashkil qildi), Qarshi shahrida 7 499,4 ming so‘mni (102,1 % ni tashkil qildi), tashkil etgan bo‘lsa, Mirishkor tumanida 3 099,4 ming so‘mni (42,2 foizini), Qamashi tumanida 3 141,9 ming so‘mni (42,7 foizini) hamda Koson tumanida 3 373,2 ming so‘mni (45,9 foizini) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 332 ta muassasada 55 342 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 22,1 %) xodim ishlagan bo'lib ularga hisoblangan ish haqi fondi 521,4 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 14,9 %) ni tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 112,8 ming so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 10,9 % ga o'sgan.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2026- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so'mda)




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Kitob tumanida 3 697,3 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 118,7 %) ni tashkil etgan bo'lsa, Kasbi tumanida 2 358,8 ming so'mni (75,7 %) ni tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



San'at, ko'ngil ochish va dam olish iqtisodiy faoliyat turida 55 ta muassasada 2 454 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,0 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 38,2 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,1 %) ni tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5 088,3 ming so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 99,7 % ga kamaygan.

San'at, ko'ngil ochish va dam olish faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2026- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'mda)




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Muborak tumanida 8 348,9 ming so'mni (viloyatdaga o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 164,0 %), Qarshi shahrida 6 083,4 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 119,5 %) ekanligi kuzatildi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

(2026- yilning yanvar-mart oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari % da)

Foiz



Sanoat
7 344,3



Qurilish
4 689,4



Savdo
4 255,4



Tashish va saqlash
8 518,8



Axborot va aloqa
11 126,8



Bank, sug'urta, lizing,
kredit va vositachilik
13 125,1



Ta'lim
3 805,2



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmatlar
ko'rsatish
3 112,8



San'at, ko'ngil ochish
va dam olish
5 088,3



Boshqa iqtisodiy
faoliyat turlari
6 593,4

ming so'm